

## ILK O'RTA ASR MANBALARIDA KIYIM-KECHAKLAR VA ULAR BILAN BOG'LIQ ATAMALAR TAVSIFI.

**Yarashova Mohlaroyim Shuhratovna**

Osiyo Xalqaro Universiteti, "Tarix va filologiya" kafedrası,

Tarix fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14520958>

Ilk o'rta asrlarga oid manbalarda o'sh davrda yashagan ajdodlarimizning kiyim-kechaklari, ularning turli xil shakllari, mahalliy xususiyatlari hamda bu davrga oid mato turlari haqida etnografik ma'lumotlar uchraydi. Xususan bu borada ilk o'rta asrlarga oid bo'lgan devoriy rang tasvirlari ham alohida o'ringa ega. Ayniqsa, Afrosiyob, Panjikent, Varaxsha, Bolaliktepa, Xolchayon va boshqa qator yodgorliklardagi rang tasvirlarni alohida ta'kidlab o'tmoq joizdir.<sup>1</sup>

Afrosiyobda olib borilgan qazishmalar jaroyonida ochilgan IX xonadan 1965- yilda birinchi devoriy suratlar topilgan.<sup>2</sup> Xona arkasi ostidagi devorning markaziy qismi ko'k rangga bo'yalgan hamda ushbu fonda ikki figura tasvirlangan: o'ng tomonda erkak, chapda ayol. Erkak boshi ayolga biroz burilgan holda to'liq yuzi tasvirlangan, biroq bu tasvir to'liq saqlanmagan: iyagining bir qismi, tekis burni, katta bo'lmagan lablar, lab ustidagi ingichka qora mo'ylov, qora sochlar va sirg'a ko'rinadi. Erkak ustida qisqa yengli va yeng uchida sariq jiyaklari bo'lgan tor qizil **kaftan** bor. Kaftan ostidan erkak o'ng yengi yaqqol ko'rinib turgan oq ko'ylak kiygan. Ko'ylakning yengi bilakka qadar tushadi va yeng uchi qora jiyak bilan tugaydi. Erkak kaftanida ko'krakning o'ng va chap tomonida qora hoshiya bilan ishlangan ikkita vertikal sariq lenta bor. Bu lenta chiziqlari beldagi kamar ostidan o'tgan. Erkakning tor beli uchta katta aylana qisqichli kamar bilan bog'langan. Ba'zi kiyim qisimlari kamarga biriktirilgan, ammo tasvirning pastki qismi yaxshi saqlanmaganligi sababli ular nimalar ekanligi aniq emas. *Qizil rulonga o'xshash bezakli sariq-yashil peshtaxta* yelkalariga tashlangan. *Qopqog'i* ko'krakning chap tomonida ikkita tugun bilan bog'langan, orqa tomonga tashlangan va o'ng qo'l ostiga tushiriladi.

Undagi burmalar qora chiziqlar bilan ifodalanadi. Ayolning yuzi to'liq saqlanib qolmagan, faqat qulog'i yuqorisdagi qora sochlari, sochlaridagi taqinchoqlari va bo'ynidagi munchoqlari ko'rinadi. Ayolning boshida to'rtta dumaloq boshli soch to'g'nog'ichlari orqali sochlariga taqilgan keng tasmalari mavjud.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Альбаум Л.И. К истории материальной культуры и искусства Правобережного Тохаристана. — Т: «Академия наук Узбекской ССР».1960. — 228 с; Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба.-Т.: «Фан».1975.-160 с; Белоницкий А.М. Монументальное искусство Панджикента. Скульптура, живопись. -М: «Искусство».1973.-68с; Шишкин В.А. Варахша.-М: «Академия наук Узбекской ССР» .1963.-250 с; Пугаченкова Г.А. Скульптура Халчаяна.-М: «Академия наук Узбекской ССР» .1970.

<sup>2</sup> Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба.-Т.: «Фан».1975.-с.15.

<sup>3</sup> Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба.-Т.: «Фан».1975.-с.16.

Afrosiyob saroyining g'arbiy devoridagi rang tasvirlarda Samarqand hukmdori qabuliga tashrif buyurgan elchilar bilan birgalikda hukmdor mulozimlari tasvirlari ham uchraydi. G'arbiy devordagi saqlangan tasvirlarda jami 42 ta figura mavjud bo'lib, shulardan 30 tasi hukmdor mulozimlariga, 12 tasi esa elchilarga tegishli.

Elchilar va ular bilan birga tashrif buyurgan mulozimlar va saroy amaldorlarida egnida ham oq, sariq rangdagi kaftan mavjud. Chag'oniyonlik elchi mulozimlarining och sariq rangli kaftanida qanotli tuya tasvirlari ham aks etgan. Kaftanning o'ng qavati chap qavati ustini qoplagan va ushbu qavat tananing o'rtasida beldan biroz balandroqda dumaloq tugma bilan mahkamlangan. Erkak kamarida uch bargli gullar bilan bezatilgan hoshiyalik ko'k ro'mol osilib turibdi. Kamardan biroz pastroqda, chap son ustida qora narsa, ehtimol xanjar g'ilofi izlari bor. Yana bir elchi egnida tog' qo'chqorlari tasviri tushirilgan ikki yoqlama manjetli jigarrang va qizil rangdagi oq xalat bor. Bel qismida xalat aylana shakli bilan bezatilgan qora kamar bilan bog'langan. Kamarining o'ng tomonida qanotli otlar tasvirlangan naqshli matodan tikilgan sumkaga o'xshagan narsa osilgan.<sup>4</sup> Afrosiyob saroyi devorlaridagi rang tasvirlari, tasvirlardagi haykalchalar, terrakotalardagi barcha umumiy tasvirlarda ustki kiyim sifatida asosan kaftan- xalat tasvirlangan bo'lib, deyarli barchasida xalatning o'ng qavati chap qavati ustini qoplagan va tugmalar bilan mahkamlangan.

Barcha xalatlar bir xil ranglarda (asosan, oq, och sariq va qizil) tasvirlangan bo'lib, yenglari va manjetlari qimmatbaho matolardan tikilgan. Belbog' tasvirlari ham yaxshi saqlangan bo'lib, ko'pchilik belbog'lar qora teridan tayyorlangan, teri har bir bog'ini metal yoki tosh bo'laklari bilan bezatilgan va aylana kamarga biriktirilgan. Shunindek ipak matolardan tayyorlangan belbog'lar tasviri ham mavjud bo'lib, ayni paytda bu zodagonlik va shaxsning alohida mavqei ramzi hisoblangan. Ro'mol tasvirlari erkaklar kiyimlaridagi kamarga osilgan holda tasvirlangan bo'lib, ular asosan yak rang matodan bo'lgan. Tasvirlar uchun umumiy bo'lgan yana bir buyum bu kamarga o'ng tomondan osilib turgan xaltachalardir. Ushbu xaltachalar asosan qattiq materialdan yasalgan va bezakli mato bilan qoplangan, xaltachalarning ochilmasligi uchun ustki qopqog'i va qisqichli kamari bo'lgan. A.D. Grax tadqiqotiga ko'ra, ko'pchilik tosh haykallarning o'ng tomonidagi kamarlarda tasvirlangan xaltachalar mayda narsalarni ko'tarish uchun ishlatilgan. Ular uchun qoplovchi material sifatida kigiz, charm, shoyidan foydalanishgan. Ushbu xaltachlar qadimda cho'ntak hamyon sifatida amal qilgan.<sup>5</sup> Xulosa qilib aytish mumkinki, Afrosiyob suratlaridagi bir guruh odamlarning tashqi ko'rinishi, kiyim-kechaklari, aksessuarlarini turkiy tosh haykallar, shuningdek, turkiy qabristonlardagi ba'zi buyumlar va terakotadan yasalgan haykalchalar bilan qiyoslash ham turkiylar va so'g'dlarning VI-VIII asrlardagi umumiy moddiy

<sup>4</sup> Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба.-Т.: «Фан».1975.-с.20-23.

<sup>5</sup> Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба.-Т.: «Фан».1975.-с.31-33.

madaniyatidan dalolat beradi.<sup>6</sup> So'g'diylarning kiyim-kechak va tashqi ko'rinishining o'zgarishi jarayoni darhol sodir bo'lmagan. O'rta Osiyoning tarixiy maydonida turkiy qabilalar paydo bo'lgan VI asrda faqat So'g'd hukmdorining o'zi turkiy odat bo'yicha uzun soch o'rimlariga ega bo'lgan, uning atrofida gilar esa hukmdor va turkiylardan farqli ravishda sochlarini qirqtirganlar.<sup>7</sup>

Bundan tashqari, Bolalik tepadagi qazishmalar chog'ida topilgan suratlarda erkaklar ustida yaktagi borligi aniqlangan.<sup>8</sup> Yozma manbalarda esa, "yaktak" atamasi XII- XIII asrlardan e'tiboran qo'llanila boshlangan.<sup>9</sup> Tadqiqotchi olim G.A. Maydinovning fikricha, ilk o'rta asrlarga oid tasviriy san'at namunalarida tasvirlangan So'g'd va Toxaristondagi aholining an'anaviy kiyim turlari ularning juda qadim zamonlardan beri mahalliy iqlim va xalqlar turmushiga moslashganidan dalolat beradi.<sup>10</sup> Devoriy suratlar va arxeologik materiallardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ilk o'rta asrlarda o'ziga to'q bo'lgan toxaristonlik va so'g'dlik erkaklar ipakdan, kambag'al aholi esa oq bo'zdan chakmon kiyganlar.<sup>11</sup>

Ilk marotaba Mug' tog'idan topilgan so'g'd yozuvidagi hujjatlar bilan birga turli matolarning bo'laklari topilgan bo'lib, ushbu matolar VIII asrning birinchi choragiga tegishlidir.<sup>12</sup> Mug' tog'idan topilgan ashyolar ichida yo'l-yo'l to'n kiygan xushbichim chavandoz tasviri aks etgan qalqon ham topilgan bo'lib, chavandoz to'nidagi ingichka qizil yo'llar sariq tag uzra tushgan.<sup>13</sup> Mug' tog'idan topilgan mato parchalari ichida to'q qizil rangning oq va yashil ranglar bilan o'zaro uyg'unligida bo'yalgan jun matoning yagona namunasi mavjud bo'lib, bu o'sh davrda yo'l-yo'l mato kamyob bo'lganligidan dalolat beradi.<sup>14</sup>

Mashhur arab tarixchisi Maqdisiy Markaziy Osiyodan qo'shni mamlakatlarga chiqarilgan savdo mahsulotlari to'g'risida yozar ekan, yozma manbalarda ilk marotaba X asrda Markaziy Osiyodan eksport qilingan mahsulotlar ichida yo'l-yo'l gazlamalardan tikilgan xorazm choponlari ham bo'lganligi haqida ma'lumot beradi.<sup>15</sup>

V-VII asrlarda Markaziy Osiyoda o'ziga xos ipakchilik markazlari paydo bo'lgan. Kiyim tikishda ishlatiladigan asosiy mato ipak hisoblangan. XI asrda yashab o'tgan mashhur tilshunos

<sup>6</sup> Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба.-Т.: «Фан».1975.-с.34.

<sup>7</sup> Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба.-Т.: «Фан».1975.-с.35.

<sup>8</sup> Альбаум Л.И. Балалыктепе.-Т.: «Академия наук Узбекской ССР».1960.14 –расм.

<sup>9</sup> Давлатова С. Қашқадарё миллий кийимлари: анъанавийлик ва замонавийлик.-Т.: "Янги аср авлоди", 2006.-Б.23.

<sup>10</sup> Майтдинова Г.М. Отражение в женских костюмах Тохаристана и Согда культурных взаимосвязей раннего средневековья.// История материальной культуры Узбекистана. Вып. 21. -Т: 1987. С. 129.

<sup>11</sup> Майтдинова Г.М. Ткани Тохаристана// Раннесредневековые ткани Средней Азии.-Душанбе, 1996.-с.11.

<sup>12</sup> Бентович И.В. Находки на горе Муг //Материалы института Археологии.1958. Вып.66.-с.363 ;Винокурова М.П. Ткани из замка на горе Муг//ИООН.Сталинабад:Изд.АН Тадж.ССР,1957. Вып.14.-С.17-32.

<sup>13</sup> Давлатова С. Қашқадарё миллий кийимлари: анъанавийлик ва замонавийлик.-Т.: "Янги аср авлоди", 2006.-Б.25.

<sup>14</sup> Давлатова С. Қашқадарё миллий кийимлари: анъанавийлик ва замонавийлик.-Т.: "Янги аср авлоди", 2006.-Б.26.

<sup>15</sup> Mahkamova S.Beqasam.-Т.: "Fan", 1971.-Б.5.

olim Mahmud Qoshg'ariy "Devoni lug'oti turk" asarida juda ko'plab kiyimlar va ular uchun ishlatiladigan gazlamalar nomlari va ularning tariflari berilgan. U o'z asarida 30 ga yaqin mato nomlarini keltirib o'tish asnosida, faqatgina tabiiy tolalardan (paxta, jun, shoyi) to'qilgan matolarnigina emas, balki zarli kimxob mato- "yo'llik barchun" (kimxob ma'nosida) dan ham chiroyli to'nlar tikilganligini ta'kidlaydi.<sup>16</sup> Shunisi qiziqki, qimmatbaho ipak, kimxob va duxoba gazlamalar o'rta asrlarda, aniqrog'i X- XII asrlarda pul o'rnida muomala vositasi sifatida ham ishlatilgan.<sup>17</sup> Shuningdek, uyg'ur qabilalari orasida, podsho muhri tushirilgan bo'z mato parchasi ham savdo- sotiq jarayonida pul o'rnida ishlatilgan.<sup>18</sup>

Mahmud Qo'shg'ariy o'z asarida kiyim-kechak, kiyinish madaniyati, mato turlariga oid bo'lgan 225 ta turkiy tildagi so'zlar va ularning izohlarini keltirib o'tgan. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, o'rta asrlarda turkiy xalqlar orasida kiyinish bilan bog'liq bo'lgan madaniyat shakllanib, yuqori darajada bo'lgan. Quyida, ushbu asarda ishlatilgan kiyim-kechakka oid bo'lgan atamalar va ularning izohlarini keltirib o'tamiz.

Ip-ip

O'm-ishton, lozim shalvar

Aj- to'q sariq rangdagi ipak kiyimlik

O'p- kaftan yoki kamzulning qo'ltiq osti qismi

Arig'-chodir pardasi, barsag'oncha

Ug'uq-mahsini ayab ustidan kiyiladigan paytava kabi narsa

Ichuk-sobol, olmaxon va boshqa hayvonlarning terisidan tikilgan po'stin

Etak- etak

Eshuk-ust kiyimi

Eshuk- shoxlar, beklar o'lganda ularning hurmati uchun qabrlari ustiga yopilib, so'ng faqirlarga bo'lib beriladigan ipaklik mato, yirtish

Az-ipak kiyimlik va boshqalarga o'xshash har bir to'qilma va yasalma narsa

As-oq susar po'stin

Al-to'q sariq rangdagi ipak kiyimlik, undan xon bayroqlari va amaldorlarining otlariga yopiladigan yopiq qilinadi

Ag'i-ipak kiyimlik

Artig'-xotinlar kiyadigan nimcha

Ichmak-qo'zi teridan qilingan po'stin

<sup>16</sup> Давлатова С. Қашқадарё миллий кийимлари: анъанавийлик ва замонавийлик. -Т.: "Янги аср авлоди", 2006. -Б.26.

<sup>17</sup> Махкамова С. Бекасам. - Т.: Фан, 1971. -Б.9.

<sup>18</sup> Махмуд Қошғарий. Девону луготи турк. I том Муталлибов .С таржимаси. -Т: ЎзССР Фанлар академияси нашриёти, 1960. -Б.395.

O'rtuk-parda, shuningdek katta odamlarning qabrlari ustiga yopiladigan ipaklik va boshqa yopiladigan har bir narsaga shunday deyiladi

Otrak-ishton (yag'mo qabilasida eshitdim)

Enak-xotinlar bosh yopinchoqlariga bog'laydigan ip bog'ich

Eshkurati-naqshli(gulli) xitoycha ipak kiyimlik

Etuklik sag'ri- mahsilik saxtiyon teri

Eshuklik barchin- ustki kiyim uchun ishlatiladigan ipak kiyimlik

Eliklik- qo'lqop

Ichqur-xotinlarning qo'litiq ostiga taqadigan ziynat asbobi

Chuz- qizil ranglik zar tikilgan chin ipak gazmoli

Chex-cho'k- laxtak-luxtak, arzon mato

Ko'rk- mo'yna, po'stin

Ko'z zo't- kiyiladigan kiyim, ko'pincha kelin va kuyov yaqinlariga hurmat yuzasidan kiydiriladigan to'nga aytiladi

Kiziz-kigiz, namat

Sizig'-ko'ylak etagining ikki tomonidan yoqqasigacha bo'lgan qismi. Sizig' japib o'tturdi-ko'ylagining ikki tomonini o'z tarafiga o'rab, to'plab o'tirdi. Bu holat noziklik va ozodalikdan bo'ladi.

Qulaq ton- ikki yengi qisqa to'n

Sizik- ust kiyimning bir tomoni

Kizuk- yomg'irda kiyiladigan yopinchiq

Kiduk- patdan qilingan bosh kiyim

Kizuk- bo'zchi do'konidagi bir-birining ustiga tugilgan iplar

Kemak- paxta ipidan to'qiladigan, uzun-uzun oq yo'lli yupqa kiyimlik, undan ust kiyimlar qilinadi. Qipchiqlar undan yomg'irda kiyiladigan yopinchiq qiladilar.

Bukum etuk- xotinlar kiyadigan etik, mahsi (o'g'uzcha)

Didim- nikoh kechasi kelinga kiydiriladigan toj, qimmatbaho toshlar o'rnatilgan bosh kiyimi

Qolan- qulvog', kamar

Didak- kelin ko'chganda, yurganda begonalardan yashirish uchun yopiladigan narsa

Kobik- chopon qavish

Tavap- Tovar, mato

Chikin- ipak

Partu- yaktak, bir qavatli ustki to'n, partiq

Burta- kiyimlarga chatiladigan girdak shaklidagi yupqa zarlar

Taxtu- yigirilmagan xom ipak

Qamdu- bo'yi 4 gaz va eni bir qarich bo'lgan bo'z bo'lagi ustiga uyg'ur xoninig muhri bosilib, savdoda pul o'rnida foydalaniladi, eskirib mahrga xalaqit etsa, 7 yildan so'ng yirtilib, yangi muhr bosilgan

Chubra- eski kiyim

Sag'ri- maxsus chidamli charm

Turqu- ipak kiyimlik

Tizma- ishtonbog', har narsani yig'ib bog'lash uchun ipdan maxsus qilingan bog'ich

Tugma- ko'ylak, chopon, qalqoplar bog'ichi, tugmasi

Qaftan- to'n, ustki kiyim

Kishsan- do'ppi va kulohlarga ishlatiladigan, taqiladigan yupqa va girdak oltin kulchalari

Tulfir- parda, xotinlar pardasi. Buni ipakli gaz matolardan ishlanadi

Qurshag'- belbog', bog', o'ram

Bung'aq- so'yilgan mol pochalarining tersi, undan oyoq kiyimi, choriq ishlanadi

Bog'maq- ko'ylak bog'ichi

Suvluq- dastro'mol

Texchak- chin ipakli gazmollardan

Kezlik- xotinlar kiyimlariga taqib, o'zi bilan olib yuradigan pichoqcha

Kunchuk- cho'ntak

Zunum- chin ipak gazmollaridan bir xili

Sarag'uch- xotinlarning boshga yopinadigan narsalari, ro'molchalari

Jixansi- chinning bir turli naqshli ipak gazlamasi

Mindatu- ipak gazlama

Suqarlaj bork- uzun qalpoq

Sizig'lig' bork- atrofi jiyakli, qirg'oqlari burama qalpoq

Bag'irdaq- xotinlar ko'ragiga taqiladigan narsa

Jun- jun mato

Burunchuk- peshonabog', xotinlar ro'moli

Erinchgak- xotinlarning yengi yo'q ustki kiyimi

Tizil duruk- mahsining boshiga bezak uchun qadaladigan silliq, yaltiroq chaqalar

Kozul duruk- ot dumidan to'qilgan, ko'z og'riganda yoki qamashganga ko'zga tutiladigan narsa (ko'zluk shakli ham bor)

Saqal duruk- qalpoq tushib ketmasin uchun unga bog'lanib, jag' tagidan o'tkazilib qo'yiladigan chizimcha, ipakdan to'qiladi

2 tom.

Tolg'ag' - xotinlarning quloq yuqorisiga taqadigan ziragi

Qirg'ag' - to'n jiyagi, chalmasi

3- tom.

Jatuq- ikki xil narsadan tikiladigan kiyimlik, arqog'ining o'rishi ipdan to'qiladi

Jariq- janglarda kiyiladigan temir ko'ylak (zireh)va qalqonning har ikkisiga ham qo'llaniladigan turdosh ismidir. Temir ko'ylakka – ko'ba jariq, qalqonga esa- saj jariq deyiladi

Jurin- ipak kiyimlik jurun-juqa deyish shundan.( Bunga Mahmud Qo'shg'ariyning izohi berilmagan, shuning uchun jurin-juqa ipaklik yoqa emasmikan degan Basim Atalayning izohi ehtimolga yaqin)

Jaqa- yoqa

Jamag'- yamoq. Barchin jamag'i barchinga, qarish jamag'i qarishga (ipaklikka ipakli, yungga yung yamoq loyiq)

Jalma- paxtali to'n

Jabtach- yomg'irdan, qordan saqlanish uchun cho'ponlar kiyadigan yopinchiq

Janchuq- hamyon

Jorumlig' urag'ut- ipak kiyimlik bo'laklar(otrez)I bor xotin

Jarindaq- turklarning qayishi, tasmasi,u echki terisidan qilinadi

But- kattalarning o'g'il- qizlari peshonalariga taqiladigan har bir qimmatbaho feruza toshi

Chit- ola-bula gullari bor chit gazlama

Bo'z munchuq- xotinlar taqadigan har xil munchoqlar

Qoj- to'nning qo'yni, elik qojqa suq – qolingni to'n qo'yniga suq

Lata- marjon

Sachu- to'n, ro'mol va shu kabilarning hoshiyalik shokillasi

Boxtaj- kiyim bug'chasi

Loxtaj- chinning bir xil qizil ipak kiyimi, ustida sariq xollari bo'ladi

Chirg'uj- to'nning qo'ltig'i ostidan o'tkaziladigan o'mrov

Jos- paxta (arg'ular, yag'molar va qarluqlar tilida)

Tanuq- shoxlar safarga va shunga o'xshashlarga chiqqanida ularga beriladigan sovg'a, unda taom va ipak kiyimlar bo'ladi

Tanuq- chovgon o'yinida koptokni tortilgan o'rovdan o'tkazganga beriladigan ipak kiyimlik

Xulin- chindan keltirilgan har turli ranglari bo'lgan, bir xil ipak kiyimlik

Jensho'-kalta paxtalik to'n

Jinchka- nafis ipak kiyimlik

Ko'nlak- ko'ylak

O'rta asrlarga oid manbalarni o'rganish, tahlil qilish orqali shu narsa ma'lum bo'ladiki, ilk o'rta asrlarda yashagan ajdodlarimiz kiyimlarining tadrijiy rivojlanib borishi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Osiyo va Buyuk Ipak Yo'li bo'ylab joylashgan xalqlarning etnik va ijtimoiy-siyosiy tarixi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Shuningdek ushbu davr kiyimlaridagi o'ziga xos an'anaviy jihatlarni o'rganish O'zbekiston xalqlarining hozirgi kiyimlarida ham ildizi chuqur tarixiy an'anaga borib taqaladigan xususiyatlar mavjudligini kuzatish imkonini beradi.

## REFERENCES

1. Альбаум Л.И. К истории материальной культуры и искусства Правобережного Тохаристана. — Т: «Академия наук Узбекской ССР».1960.
2. Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба.-Т.: «Фан».1975.
3. Шишкин В.А. Варахша.-М: «Академия наук Узбекской ССР» .1963.
4. Белоницкий А.М. Монументальное искусство Панджикента. Скульптура, живопись.-М: «Искусство».1973.
5. Пугаченкова Г.А.Скульптура Халчаяна.-М: «Академия наук Узбекской ССР».1970.
6. Альбаум Л.И.Балалыктепе.-Т: «Академия наук Узбекской ССР».1960.
7. Давлатова С. Қашқадарё миллий кийимлари:анъанавийлик ва замонавийлик.-Т.:''Янги аср авлоди'',2006.
8. Ярашова, М. (2024). ЖАҲОН ЭТНОЛОГИЯСИ ФАНИ ВА УНИ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МЕТОДОЛОГИЯСИ. *Modern Science and Research*, 3(10), 362–368. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/44901>
9. Ярашова, М. (2024). БУХОРО ВОҲАСИДА МАТО ВА МАТО ТАЙЁРЛАШ УСУЛЛАРИ. *Modern Science and Research*, 3(11), 782–787. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48057>
10. Yarashova Mohlaroyim Shuhratovna. (2024). Muyiddin Ibn Arabiyning Tasavvuf Ta'limotida Tahsil Olgan Ayol Ustozlari Va Ta'lim Bergan Ayol Shogirdlari. *Miasto Przyszłości*, 52, 622–625. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4679>
11. Sayfutdinov Feruzlilniyozo'g'li. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(9), 1–5. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/7941>
12. Sayfutdinov, F. (2024). MANG'IT AMIRLARI DAVRIDA BUXORO AMIRLIGI ME'MORCHILIK SOHASI RIVOJI. *Modern Science and Research*, 3(10), 620–629. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/4533>

13. Ilniyazovich, S. F. (2024). *Historiography of Various Expeditions and their Results in the Regions Inhabited by Karakalpaks in the First Half of the 20th Century*. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4 (9), 159–165
14. Yusupovich, K. S. (2024). Abu Hafs Kabir and the Spread of the Hanafi Madhhab in Transoxiana. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 204–207. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/4079>
15. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. *SCHOLAR*, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
16. Muyiddinov Bekali. (2023). MO’G’ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. *TADQIQOTLAR.UZ*, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
17. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 55–58. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035>
18. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>
19. Xayrullayev, U. (2024). THE IDEA THAT MADE THE OTTOMAN STATE GREAT (RED APPLE II). *Modern Science and Research*, 3(2), 1071–1073. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29533>
20. Xayrullayev, U. (2024). BRIEFLY ABOUT THE "RED APPLE" MYTHOLOGY OF THE TURKS. *Modern Science and Research*, 3(1), 568–572. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28329>
21. Umidjon, X. (2024). Literacy and Information Exchange in the Ancient East and West. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 179–183. Retrieved from <http://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2698>
22. Umidjon, X. (2023). 1918-1939-yillarda Polshaning ichki siyosatidagi o'zgarishlar. *Центр Научных Публикаций (buxdu.Uz)*, 42(42). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/10963](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10963)
23. Toshpo'latova, S. (2024). TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI METODLAR. *Modern Science and Research*, 3(11), 774-782.

24. Тошполатова, Ш. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.
25. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
26. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
27. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
28. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
29. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.
30. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV-O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.
31. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research*, 3(2), 87-93.
32. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004-1011.
33. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.
34. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. *Modern Science and Research*, 3(1), 504-510.
35. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). MS Andreyev'S Way Of Life. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 655-659.
36. Shuhratovna, T. S. (2023). Ethnological Analysis Of National Costumes And Rituals Of Tajiks In The Works Of MS Andreyev. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42-47.
37. Toshpo'latova, S. (2023). MS Andreyev-Scientific Career. *Modern Science and Research*, 2(12), 801-807.
38. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17-23.
39. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV-" ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404-409.

40. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRIAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291-299.
41. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84-89.
42. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). Marriage Ceremony Of Tajiks In The Work Of Mikhail Stepanovich Andreyev "Tadjiki Dolini Khuf". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12-16.
43. Toshpo'latova, S. S. (2023). Tojiklar Milliy Kiyim-Kechaklari Va "Beshmorak" Marosimining Etnologik Tahlili. *Scholar*, 1(28), 395-401.
44. Muxamedovna, G. M. (2024). PARANJI TARIXI, YOXUD O'RTA ASR AYOLLARINING KIYIMI HAQIDA.
45. Muxamedovna, G. M. (2024). Millatimiz Faxri-Buxoro Ma'rifatparvari. *Miasto Przyszłości*, 52, 557-562.
46. Muxamedovna, G. M. (2024). TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(5), 97-102.
47. Mukhamedovna, G. M. (2024). The Sad Fate Of The Women Of Turkistan: About The "Hujum" Movement And Its Impacts On Agriculture. *SPAST Reports*, 1(7).
48. Muxamedovna, G. M. (2023). MAKTABLARDA TARIX FANINI O'QITISH AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(5), 178-180.
49. Muxamedovna, G. M. (2023). TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(5), 175-177.
50. Gadayeva, M., & Ismoilova, Z. (2024). The Importance Of Studying The Science Of Youth Psychology In Improving People'S Lives. *Modern Science and Research*, 3(2), 676-683.
51. Gadayeva, M., & Hamroqulova, N. (2024). The Basis Of The Use Of Development-Pedagogical Skills In Pedagogical Activity. *Modern Science and Research*, 3(2), 684-689.
52. Gadayeva, M. (2024). ABOUT THE HISTORY OF THE VEIL OR MEDIEVAL WOMEN'S DRESS. *Modern Science and Research*, 3(2), 1097-1103.
53. Gadayeva, M. (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459-464.

54. Universiteti, G. M. M. O. X. (2023). Uchinchi Renesans Davrida Ajdodlarimiz Merosini Organish Orqali Integratsion Ta'limni Yanada Takomillashtirish Tamoyillari: Часть 1 Том 1 Июль 2023 Год. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 1(1), 11-16.
55. Gadayeva, M. (2024). Attack Action. *Modern Science and Research*, 3(1), 1028-1033.
56. Gadayeva, M. (2024). Effective Ways To Use The" Thoughtstorm" Method On The Theme Of The" Eastern Renaissance" Era. *Modern Science and Research*, 3(1), 1024-1027.
57. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEKANIZMLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 12-14.
58. Muxamedovna, G. M. (2023). Uchinchi renesans davrida ajdodlarimiz merosini organish orqali integratsion ta'limni yanada takomillashtirish tamoyillari. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 22(1), 35-38.
59. Muxamedovna, G. M. (2023). History Of Patriotic Women. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 69-75.
60. Muxamedovna, G. M. (2023). Innovatsion TaLim-Buyuk Kelajak Poydevori. *World scientific research journal*, 17(1), 74-76.